

**2 SINF O'QUVCHILARIDA MUSIQA CHOLG'ULAR MAVZUSINI O'TILISH
O'RNI**

Shavkatova Muxlisa

V.Uspenskiy nomidagi RIMM o'qituvchisi

"Musiqa qalbning axloqiy tomoniga
ma'lum darajada ta'sir etadi.

Shunday ekan, u yosh avlodni tarbiyalash
fanlari qatoriga kiritilgan bo'lishi kerak".

Aristotel

Yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarga jahon andozalari darajasida ta'lim-tarbiya berish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallashiga ko'mak berish hamda iml-fan sohasidagi izlanishlarini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratiladi. 1997-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir yangi avlod kadrlarini tayyorlashga qaratildi. Bu borada ta'lim va tarbiya sohasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar ilgari surildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2008-yil 7 yanvardagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda ushbu yo'naliishga tegishli bo'lgan 2016-2020 yillarga bag'ishlangan ikkinchi dastur yosh avlodning musiqiy tarbiyasini eng quyi pog'onalardan boshlash va uning sifat darajasini yuqoriga ko'tarishga qaratildi. Ushbu farmon hamda dasturlarning bajarilishi respublikamizda 398 ta bolalar musiqa va san'at maktablarining barpo etilishi, ularning oxirgi rusumdagি musiqiy cholg'ular hamda yangi avlod adabiyotlari bilan ta'minlanishiga asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan O'zbekiston davlat konservatoriysi uchun yangi bino barpo etilishi, uning huzurida Iqtidorli bolalar akademik litseyi, pedagog kadrlar uchun Malaka oshirish fakulteti, Ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot markazi, Musiqiy cholg'ular muzeyining tashkil etilishi musiqa san'atining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqqani hozirda mamnuniyat bilan e'tirof etilmoqda. Yosh bastakorni tarbiyalash masalasi juda murakkab va nozik jarayondir. Bunda har bir ijodkorga individual yondoshib ish ko'rish maqsadga muvofiq. Bastakorni yetuk mutaxassis qilib voyaga yetkazish - yakka tarzda tarbiyalash orqali bajariladi. Bastakorlik san'atiga xos bo'lgan ushbu xususiyatni inobatga olgan holda, O'zbekiston davlat konservatoriyasida "5150100 – Bastakorlik san'ati" ta'lim yo'naliishi Davlat ta'lim standarti, o'quv reja va o'quv dasturlari

asosida ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bugun mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma'naviyatli, intellektual jihatdan yuqori salohiyatga ega, jismonan sog'lom etib o'stirish, milliy urf-odat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki yurtimizning ertangi kuni, istiqboli, yuksalishi va ravnaq topishi hozirgi ulg'ayib borayotgan avlodga bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, ularga to'g'ri tarbiya berish, bilimli, ma'naviyatli inson qilib kamol toptirish eng asosiy masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Bu borada yaratilayotgan yangi o'quv adabiyotlari kabi ushbu darslik ham o'z o'rniga ega bo'ladi, degan umiddamiz.

O'zbek musiqasida milliy va xalq cholg'u sozlari ijrosining o'rni beqiyos. Ulardan samarali foydalanish esa bizga ko'plab imkoniyatlarni beradi. Biz ularda sifatli, mukammal darajadagi ijroni yaxshilashimiz, ularda mukammal darajada ijro qilishimiz uchun esa ularni sifatiga ham alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. Ularni ko'plab mutaxasislar qayta ishlab, taraqqiy lashib, uni yanada ham ijro imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu – milliy sozlarimizning ijrosini yanada mukammallashishiga olib keldi.

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi. milliy va xalq cholg'ularining tuzilish guruhlari:

1. Urma zarbli cholg'ular guruhi;
2. Puflama cholg'ular guruhi;
3. Torli kamonli va kamonsiz cholg'ular guruhi;
4. klavishli cholg'ular guruhi;

Urma-zarbli cholg'ular

Urma-zarbli cholg'ular — bu shunday cholg'ularki, ularda ovoz qo'l, barmoqlar, metall tayoq yoki maxsus urgich bilan urib chiqariladi.

Qadimgi "cholg'ular":



qovoq

qo'llar



toshlar



oyoqlar

Milliy cholg'ular:

Doira - bu teri bilan qoplangan yog'och halqadir. Ichkari qismidan doiraga metal uzukchalar biriktirilgan bo'lib, qachonki doira silkitilsa ular o'zidan yoqimli ovoz chiqaradi.



Nog'ora – bu ikki barabandan iborat bo'lган cholg'u, nog'oralar tuyu terisi bilan qoplangan. Ular kompozitsiyaning asosiy ritmini belgilaydilar. Ularni ikkita yog'och tayoq bilan yoki oddiygina qo'l kaftlari bilan chalish mumkin.



Barabanlar va tam-tamlar

Marakas va timpalar

Zillar, childirmalar, ksilofonlar,

Qo'ng'iroqlar, metallofonlar.

Ularni yo silkitishadi yoki qattiq urishadi

Bekorga **urma-zarbli** deyishmaydi

Urma-zarbli cholg'ularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Noohangdor- ma'lum bir ovoz balandligi bo'lмаган cholg'ular. Ular asarning ritmik ko'rinishiga axamiyat berishadi.



Marakaslar



Gong



Bong



Kastanyettalar

Ohangdor - turli balandlikdagi tovushlarga ega bo'lgan cholg'ular bo'lib, ularda ma'lum bir kuy chalish mumkin.



Puflama (damli) cholg'ular

Puflama cholg'ular – bu shunday cholg'ular oilasiki, ularning tovush manbai bu cholg'u ichida havo bilan to'ldirilgan ustundir; nomi ham shu sababdan kelib chiqqan ("havo" so'zidan). Tovush havo oqimini cholg'uga puflash orqali hosil bo'ladi.

Qadimgi cholg'ular:

Qamish

Hayvonlar shoxi

Chig'anoq



Milliy cholg'ular:

Surnay



Karnay


Karnayning tovushlarini osonlik bilan tanib olish mumkin. Karnay o'zidan 4-5 metrli quvurni tashkil qiladi. Karnay to'yarda va maxsus bayramlarda jaranglaydi.

Surnay – o'zining noyob va kuchli ovozi tufayli asosiy musiqiy cholg'ulardan biriga aylangan. Surnay ansambl tarkibida turli milliy bayramlarda, to'y marosimlarida keng qo'llaniladi.

Qo'shnay (yakkaxon)



Nay - bu ko'ndalang fleyta bo'lib, 6 ta chalinishi kerak bo'lgan teshiklarga ega. Nay ansambl va orkestr cholg'usi sifatida foydalaniladi.



Yog'ochli - puflama cholg'ular



Klarnet Fleyta Goboy Fagot

Damli cholg'ular orkestrini bezaydi

Fleyta, klarnet, fagot va goboy.

Kimda-kim ularni istasa chalishni -

Puflashi va tugmachalarini bosishi olishi kerak!



Fleyta – yog'ochli-puflama cholg'u bo'lib, u tiniq, shaffof, mayin va biroz sovuqroq ovozga ega. Uning ajdodlari

ko'plab qadimgi xalqlar orasida mavjud bo'lgan yog'och surnaylar va hushtaklar edi. Nayning eng pastki notasi birinchi oktavaning "do" notasi, eng yuqori notasi esa uchinchi oktavaning "do" notasidir.



Goboy - muloyim, o'ychan, ohangdor tembrga ega bo'lgan cholg'u. Uning "ota-bobosi" cho'pon surnayi bo'lgan. O'zining ifodali tembri tufayli goboy ko'pincha kino musiqasida qo'llaniladi.



Klarnet (lot. clarus — tiniq) — yog'ochli-puflama cholg'u. Har bir registrda cholg'u tembri turlichadir: pastki registrda u qalin va shirali, o'rta registrda yorqin va dabdabali, yuqori registrda esa u chinqiroq ovozga ega. Klarnetning ajdodi "sibizg'i" cholg'usi edi.



Fagot - yog'ochli-puflama cholg'ular guruhining eng yo'g'on ovozga ega bo'lgan cholg'usidir. Fagotning tembri ming'illoq va og'ir bo'lganligi sababli, uni ko'pincha o'ynoqi, hazilkash obrazlarni yaratishda qo'llashadi.

Misli - puflama cholg'ular



Truba Trombon

Damlidir ushbu cholg'ular
Ular misli, vahobatli
Valtorna, tuba , Gelikon
Truba, trombon va saksafon

Valtorna

Tuba



Truba - o'rta o'lchamdag'i mis-damli cholg'u, yorqin,
tiniq, porloq ohangga ega.



Trombon – kuchli, yorug', mardonavor ohanga ega mis-damli cholg'u.



Saksafon – qalb uchun cholg'u. U I.S.Bax asarlarida jiddiy faylasuf, romantik kompozitorlarnikida yumshoq va lirik, jazzda esa jasur va erkin bo'lishi mumkin. Ushbu janrda saksafon shohdir, chunki u, odatda, tomoshabinlar bilan so'zlashuvchi ijrochining ovozidir.



Valtorna - juda yumshoq, oljanob "asal" tembriga ega bo'lgan mis-damli cholg'u. Valtornaning ajdodi "ov shoxi" bo'lgan.



Tuba – mis-damli cholg'ular guruhining eng yo'g'on ovozga ega cholg'usi. Tubaning tembri - jasur va jiddiy.

Torli cholg'ular

Milliy cholg'ular:

Ud ikki ko'rinishda mavjud bo'lgan : qadimgisi (gadim)4 ta, mukammali esa 5 ta juft torlarga (simlarga) ega bo'lgan.



Ud



Rubob - 5 ta tordan iborat



Plektr



Dutor – (du – ikki, tor – tor(sim)) – ikki simli



Qonun (24-26 uchtaлик тоелардан iborat)



G'ijdjak (to'rtta simli)



Chang (42 ta metal torlardan iborat cholg'u)



Torli-chertib chalinadigan cholg'ular



Layta torli-chertib chalinadigan cholg'ular oilasiga mansub, o'zining jaranglashiga ko'ra gitaraga o'xshaydi, ammo ovozi ancha yumshoqroq va mayinroq, tembri yoqimli. Arablar uni "musiqiy cholg'ular malikasi" deb atashgan. Lyutnyaning tovush manbai juft va yakka torlar

bo'lib, ijrochi o'ng qo'li bilan chertadi va chap qo'li bilan pardaga bosadi, ularning uzunligini o'zgartirib, tovush balandligini ham o'zgartiradi. Cholg'uning diapazoni taxminan 3 oktava.



Arfa

Qadimda arfa xudolarning cholg'usi deb hisoblangan. Arfaning qirq oltin torlari quyosh nurlarini eslatadi.



Balalayka - rus xalqining torli – chertib chalinuvchi cholg'usi. Balalaykada uchta tor mavjud. 18-19 va 20-asr boshlarida balalayka eng keng tarqalgan xalq cholg'ularidan biri bo'lган.



Skripka alt Violonchel contrabas



Violonchel hajm jihatidan altdan kattaroq, lekin kontrabasdandan kichikroq. Violonchel chuqur, jonli, uzoq davom etadigan tovushga ega, shuning uchun u ko'pincha dramatik yoki foyiali obrazni tasvirlashda ishlataladi. Kompozitorlardan I.S.Bax, A.Vivaldi, L.Betxoven, P.I.Chaykovskiy violonchel uchun konsertlar, sonatalar, mustaqil asarlar yaratishgan.



Kontrabas eng yirik

va eng yo'g'on ovozli torli-kamonli cholg'u hisoblanadi. Uning tembri juda chiroyli: qalin, boy, shirali, mayin, yumshoq - ba'zan inson ovoziga ham o'xshab ketadigan kontrabas ohangining tabiatini shunday tasvirlash mumkin.



Sergey Sergeyevich Prokofyev - buyuk rus kompozitori, uning ijodida bolalar mavzulari alohida o'rin tutadi. Bolalar uchun kompozitsiyalar yaratishga Prokofyevni taniqli adabiy asarlar ilhomlantirgan, jumladan: Karlo Gotstsi tomonidan "Uch apelsinga muhabbat"; Charlz Perro tomonidan "Zolushka"; P. P. Bajovning "Malakit qutisi", "Kon ustasi", "Tosh gul" va boshqalar.

"Petya va bo'ri" simfonik ertagida bosh qahramon - bola Petya. U mushukning panjasidan qushni qutqaradi va ovchilarga yomon bo'rini tutishga yordam beradi.

Har bir qahramonga ma'lum bir musiqiy cholg'u tomonidan ovoz berilgan.




. Petyaga - torli guruh.



Klavishli cholg'ular

Fortepiano ajdodlari:



1. Monoxord



2. Klavikord

Klavikord eng qadimgi klavishli cholg'ulardan biri bo'lib, qadimgi monoxorddan kelib chiqqan. Bu fortepianoning peshqadamlaridan biri bo'lgan klavishli, torli-urma musiqa cholg'usidir.

Klavikord uchun asarlarni I. S. Bax, uning o'g'li K. F. E. Bax, V. A. Motsart va hatto L. van Betxoven kabi buyuk kompozitorlar yaratishgan.



3. **Klavesin** ixtiro qilinganidan keyin u minglab musiqachilar va tinglovchilar qalbini zabit etdi. Musiqa ustalari kuchliroq tovushga ega klavikord yaratishga intilishdi. Ovozga maxsus

til yordamida ma'lum bir torlarni chertib yuboradigan tugmachalarni bosish orqali erishildi. Kompozitorlar: Fransua Kuperin, Jan Filipp Ramo, Domeniko Skarlatti, Genri Persell, Georg Fridrix Gendel, Iogann Sebastyan Bax tomonidan klavesin uchun ko'plab asarlar yaratilgan.

Fortepiano

Uning ixtirochisi 1709 yilda florensiyalik Bartalameo Kristoforidir. Bir klaviaturada baland (forte) va sokin (piano) tovushlarning birikmasi cholg'uga o'z nomini berdi. Birinchilardan bo'lib uni V.A.Motsart, Y.Gaydn, L.Betxoven, R.Shuman o'zlashtir



Pianino




Organ – “cholg'ular qiroli”

Har xil tembrli trubalar yordamida jaranglaydigan eng yirik, eng ulug'vor cholg'u asbobi. Organda chalish qo'llar uchun bir nechta klaviaturalar (manuallar) va oyoqlar uchun pedal klaviaturasi yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda organda 1 dan 7 tagacha klaviatura (manuallar) mavjud. Organlarda ular biri birining ustki qismida joylashgan. Ulardan tashqari, pastki tovushlar uchun pedalli oyoq klaviatura (5 dan 32 gacha) ham mavjud. Qo'l partiyasi ikkita nota ustunlariga yoziladi. Pedallar partiyasi esa ko'pincha alohida nota chizig'ida yoziladi.

Har bir klavishga bir xil balandlikdagi, ammo turlicha tembrdagi tovushlarni chiqaradigan bir necha o'nlab yoki hatto yuzlab trubalar mos keladi. Ular klaviaturaning yon tomonida

joylashgan registr tugmalari yordamida yoqilishi va o'chirilishi mumkin. Shunda organning ovozi yo nayga, yo goboy yoki boshqa cholg'uga o'xshab qoladi.

Klavishli - Puflama cholg'ular



Kafedra



Akkordeon



Bayan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. Oydin Abdullayeva "Cholg'ushunoslik".
2. Galatskaya "Musiqa adabiyoti".
3. O.V. Vasilevskaya "Uchebnoye posobiye po slushanii muziki".
4. G.S.Gafurova "Musiqa tinglash fanidan ish daftari".